

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.Inoyatova	
Oilaviy munosabatlarda shaxsning milliy va umummadaniy dunyoqarashining shakllanishidagi shart-sharoitlar	207
U.Qurbonov	
Mishel Monten falsafasida gumanistik antropotsentrizm masalalari	212
G.Ravshanova	
Ta'lim –tarbiya muassasalarida axborot-kutubxona ishlarini tashkil etishning ma'naviy-axloqiy jihatlari	216
O.O'roqova	
Sharq romantizmining estetik xususiyatlari.....	219
F.Rabbimova	
Tasavvuf va futuvvat ta'limotlari haqida mulohazalar	222
D.Axmedova	
Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning asoslari	226
N.Sabirov	
Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishning dolzarb masalalari	231
Sh.Murtozayev	
Abu Hafs Umar Suhravardiy inson nafsini anglashga doir falsafiy qarashlarining tahlili.....	236
I.M.Arzimatova	
Ayol rahbar kadrlarning axloqiy va estetik madaniyatini rivojlantirishning falsafiy jihatlari	240
A.A.Tojaliyev	
Oliy ta'lim- Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti	245
A.A.Abdumalikov	
Innovatsion ekologik tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari	249
O'.X.Rajabov	
“Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirishda konsensus madaniyatining ahamiyati	253
	SIYOSAT
M.U.Jo'rayev	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish	258
A.Xudayberdiyev	
Globalashuv sharoitida xalqaro siyosat va missionerlik.....	263
O.Majidov	
O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha yangilangan siyosatning ayrim jihatlari va ijodiy xususiyatlari	268
M.U.Jo'rayev	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	273
Sultonov Javohir, Mamajonov Farhod	
Xalqaro munosabatlarda konstruktivizm nazariyasining o'ziga xosligi	279
J.Sh.Museyibzada	
Yevropa parlamentiga kirish va tahlil	285
	TARIH
I.G'ulomov	
Turkistonda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri.....	292
U.O'sarov	
XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi qishloq xo'jaligida Sholi yetishtirish va uning ahvoli	297
F.Utayeva, B.Safarov	
Buxoro ip-gazlama kombinatining qurilish tarixi va ishlab chiqarish faoliyati	303
A.Usmonov	
Badiiy hunarmandchilik bilan bog'liq nomoddiy madaniy meroslar	308
A.Yarkulov	
Arxeologiya parklarining ba'zi o'ziga xos xususiyatlari	314
B.Usmanov	
Mustaqillik yillarida suv muammolarini bartaraf etishda davlat siyosati.....	320

GLOBALLASHUV SHAROITIDA XALQARO SIYOSAT VA MISSIONERLIK

МЕЖДУНАРОДНАЯ ПОЛИТИКА И МИССИОНЕРСТВО В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

INTERNATIONAL POLICY AND MISSIONARY WORK IN THE CONDITION OF GLOBALIZATION

Xudayberdiyev Asomiddin Kurbonkulovich¹¹Xudayberdiyev Asomiddin Kurbonkulovich

– Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

Mazkur maqolada globallashuv sharoitida xalqaro siyosat va missionerlikning o'zaro faoliyati to'g'risidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada global miqyosda xalqaro siyosiy markazlar tomonidan yo'naltirilayotgan missionerlik oqibatida ayrim mamlakatlardagi davlat suvereniteti, konstitutsion tuzumga qilinayotgan tajovuzlarni mafkuraviy qo'llab-quvvatlash va ta'minlash borasidagi fikrlar yoritilgan. Missionerlik tarafdorlarini mafkura poligonlarida olib borilayotgan kurash uchun juda katta sarmoyalarni safarbar etishayotganligi namoyon bo'lmoqda. Shu o'rinda, missionerlik aniq belgilangan siyosiy maqsadlarni amalga oshirishda aksariyat holatlarda yovuz va buzg'unchi g'oyalarni kuzlayotgani oydinlashmoqda. Mazkur harakatlar oqibatida iqtisodiy taraqqiyotdan orqada qolgan davlatlarga "beg'araz" yordamning ko'rsatish niqobi ostida ayrim mustaqil davlatlarning ichki ishlariga ochiqdan ochiq aralashuvining yashirin ko'rinishi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi murakkab sharoitda mamlakat xavfsizligi va jamiyat barqarorligiga, uning manfaatlariga, millat kelajagiga raxna soladigan har qanday kuchga qarshi kurashda mafkuraviy tarbiya vositasida doimo ogoh, sezgir va xushyor bo'lishga oid ko'rsatmalar ilgari surilgan.

Аннотация

В данной статье анализируются взгляды на международную политику и миссионерское взаимодействие в условиях глобализации. В статье также описывается идеологическая поддержка и обеспечение государственного суверенитета в некоторых странах, а также посягательство на конституционный строй в результате миссии, направляемой международными политическими центрами по всему миру. Очевидно, что миссионеры мобилизуют огромные инвестиции в борьбу за идеологические полигоны. В то же время ясно, что миссионер часто следует жестоким и разрушительным идеям в достижении четко определенных политических целей. В результате этих действий под видом предоставления «бесплатной» помощи экономически отсталым государствам это рассматривается как тайное проявление открытого вмешательства во внутренние дела некоторых независимых государств.

В современных сложных условиях через идеологическое воспитание выдвинуто указание быть всегда бдительным, чутким и бдительным в борьбе с любой силой, подрывающей безопасность страны и стабильность общества, его интересы, будущее нации.

Abstract

This article analyzes the views on international politics and missionary interaction in the context of globalization. The article also describes the ideological support and ensuring state sovereignty in some countries, as well as the encroachment on the constitutional system as a result of a mission led by international political centers around the world. It is evident that the missionaries are mobilizing huge investments in the struggle for ideological landfills. At the same time, it is clear that the missionary often follows brutal and destructive ideas in pursuit of well-defined political goals. As a result of these actions, under the guise of providing "free" aid to the economically backward states, it is seen as a secret manifestation of open interference with the internal affairs of some independent states.

In today's difficult conditions, through ideological education, an instruction has been put forward to be always vigilant, sensitive and vigilant in the fight against any force that undermines the security of the country and the stability of society, its interests, and the future of the nation.

Kalit so'zlar: missionerlik, mafkura, tahdid, global, xalqaro siyosat, siyosiy markaz, xalqaro iqtisod, axborot, kommunikatsiya, intervensiya.

Ключевые слова: миссионерства, идеология, угроза, глобальная, международная политика, политический центр, международная экономика, информация, коммуникация, интервенция.

Key words: missionary, ideology, threat, global, international politics, political center, international economy, information, communication, intervention.

KIRISH

Globallashuv sharoitida mafkura poligonlarida inson qalbi va ongini zabt etishga bo'lgan harakatlar tobora kuchaymoqda. Zero, global miqyosda g'oyaviy — mafkuraviy tahdid sifatida namoyon

bo'layotgan missionerlikning kuchayishi dunyo jamoatchiligi ongi, ruhiyati va ma'naviyatiga jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Bu haqda fikr yuritganda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Barchamizga yaxshi ma'lumki, hozirgi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarmoqda. Insoniyatning taqdiri va kelajagiga tahdid solayotgan xavf-xatarlar tobora kuchayib bormoqda" [1] -deb ogohlikka da'vat etgani bejiz emas. Zero, bugungi kunda missionerlik zamirida taraqqiyot sari intilayotgan mamlakatlarning davlat suvereniteti, konstitutsion tuzumga qilinayotgan tajovuzlarni mafkuraviy qo'llab quvvatlash kabi salbiy holatlar namoyon bo'lmoqda. Missionerlik tarafdorlarini mafkura poligonlarida olib borilayotgan kurash uchun juda katta sarmoyalarni safarbar etishayotganligi namoyon bo'lmoqda. Shu o'rinda, missionerlikka bo'lgan munosabatlarni ijobiy ekanligini ayrim siyosatchilar tomonidan bildirilgan fikrlarida ham o'z aksini topgan. Ushbu fikrlarni Amerikaning XIX asrda xorijda faoliyat ko'rsatgan presviterian missiyasi kotibi F.Ellinvud o'z bayonotida ochiq-oydin: "Xohlaymizmi yo'qmi, bizning missionerlik faoliyatimiz kelgusi o'n yillikda xoh yaxshilik, xoh yomonlik bilan bo'lsin diplomatiya va savdo bilan chambarchas bog'lanadi" [2] -deb ta'kidlagan edi. Shu tariqa, missionerlik aniq belgilangan siyosiy maqsadlarni amalga oshirishda aksariyat holatlarda yovuz va buzg'unchi g'oyalarni ko'zlayotgani oydinlashmoqda. Mazkur harakatlar oqibatida iqtisodiy taraqqiyotdan orqada qolgan davlatlarga "beg'araz" yordamning ko'rsatish niqobi ostida ayrim mustaqil davlatlarning ichki ishlariga ochiqdan ochiq aralashuvining yashirin ko'rinishi sifatida namoyon bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kunda u yoki bu diniy bayroq qilib dunyoviy tartibotga qarshi yo'naltirilgan radikal harakatlarga qarshi kurash olib borish ko'p qirrali benihoya ziddiyatli fenomen ekanligini inobatga olish zarur [3]. Zero, jahondagi yetakchi davlatlar missionerlik harakatlarini yo'naltirish orqali iqtisodiy yordam berish bahonasida aksariyat holatlarda o'zlarining siyosiy shartlarini bajarishga majbur qilish holatlari kuzatilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy jihatdan zaif davlatlarga "beg'araz" yordam ko'rsatish orqali o'z siyosiy ta'sir doirasiga olish holatlari tobora oydinlashmoqda. Xususan, diniy vositalar orqali o'zga davlatlarning ichki ishlarga aralashuvi namoyon bo'lmoqda. Missionerlik geosiyosiy kuchlar ko'magida xavfli qurol sifatida, o'zga din vakillari e'tiqodiga raxna solmoqda. Shu bilan bir qatorda, mazkur harakatlar gegemonlik va mustamlakani, bosqinchilik hamda kuchli davlatlarning kuchsiz davlatlarga nisbatan siyosiy bosimini tajovuzkorlik harakatlari oqibatida amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Mazkur holat, jahondagi yetakchi davlatlarning dunyo zaxiralarning to'liq egallash va nazorat qilishda mafkuraviy hujum quroli sifatida missionerlikdan foydalanayotganligini namoyon etmoqda. Natijada, muayyan hudud yoki mintaqada xalqlarni o'z mamlakati siyosatiga qarshi qo'yish holatlari kuzatilmoqda. Bugungi kunda missionerlik natijasida ayrim mamlakatlardagi davlat suvereniteti, konstitutsion tuzumga qilinayotgan tajovuzlarni mafkuraviy qo'llab quvvatlash va ta'minlash holatlari kuzatilmoqda.

Dunyoda miqyosida tahlilali vaziyatini tobora avj olishi missionerlik borasida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Zero, missionerlik oqibatida muayyan hudud va mintaqada katta ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotganligi mamlakat miqyosida hukumat boshqaruvida o'zaro qarama qarshi kuchlarning shakllanishiga zamin yaratmoqda. Mazkur holat, eng avvalo, millatning asriy qadriyatlariga raxna solish orqali xalq va millatning turmush darajasini izdan chiqarayotganligini aytib o'tish lozim. Shu tariqa, davlat boshqaruvida separatizmning kuchayishi muayyan mamlakat suverenitetiga nisbatan jiddiy xavf solmoqda.

Hozirgi kunda, dunyo hamjamiyatini noan'anaviy dinlarning faoliyati tashvishga solmoqda. Aynan, dunyo miqyosida noan'anaviy dinlarning ijtimoiy namoyon bo'lishi bir qator muammolarni keltirib chiqarishga zamin yaratyapti. Bir millatga mansub, bir tilda gaplashuvchi, umumiy tarix va yagona davlatga ega bo'lgan fuqarolarni diniy asosda bo'lib tashlashga qaratilgan harakatlar har qanday jamiyat hamda davlat uchun tahdid tug'dirmoqda. Ayni paytda insoniyatning ko'p asrlik tarixi dindan niqob sifatida foydalanish undagi g'oyalarni vayronkorlik ruhida talqin etish insonlar boshiga ko'plab kulfatlar keltirganini ko'rsatadi. Zamonaviy voqelik dindan g'arazli maqsadlar yo'lida foydalanish davom etishi barobarida, u o'ta nozik tus va xatarli ko'rinishlar olayotganidan guvohlik bermoqda [4].

Bugungi kunda noan'anaviy diniy jamoalar tomonidan qilinayotgan targ'ibot va tashviqotlar oqibatida konfessiyalararo nizolarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, ayrim diniy tashkilotlar tomonidan o'z saflarini kengaytirish maqsadida o'zga dinlar o'rtasida missionerlik faoliyatini olib borishi diniy adovatlarga sabab bo'lmoqda. Mazkur holatlar Afrika va Osiyo mintaqasidagi qator mamlakatlarda missionerlik natijasida tub aholining diniy tarkibidagi muvozanatni buzilishiga zamin yaratmoqda. Natijada, mazkur holatni missionerlik oqibatida turli din vakillari orasida doimiy ravishda diniy adovatlar kelib chiqayotgan mojarolar misolida ko'rish mumkin. Jumladan, Afrikaning shimoli-sharqiy qismida joylashgan Sudan Respublikasining asosiy neft zaxiralari joylashgan janubiy hududlari o'tgan asr

SIYOSAT

davomida katolik va protestant missionerlari tomonidan faol xristianlashtirilgan edi. Ushbu hududda markaziy hukumatga qarshi qurolli chiqishlar oqibatida, ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 1,5 mln.ga yaqin odam nobud bo'lgan. 2011 yili Afrikadagi eng yirik davlat hisoblangan mazkur mamlakat musulmonlar ko'pchilikni tashkil etuvchi Sudan aholisining asosiy qismi xristianlardan iborat Janubiy Sudan Respublikasiga bo'lib yuborildi [5]. Vaholanki, missionerlik oqibatida o'tmishda buyuk madaniyat va taraqqiyot davrlarini boshidan kechirgan xalq va millatlar o'rtasida o'zaro nizo va adovatlarni kuchayishiga zamin yaratayotganligini ta'kidlash o'rinlidir. Aynan, mazkur holat tufayli Indoneziyaning xristianlashtirilgan shimoliy hududlari – Sumatra, Sulavesi va Molukko hududlarida muttasil ravishda musulmonlar va xristian prozelitlari o'rtasida diniy nizolar asosida to'qnashuvlar, qotilliklar, terrorchilik harakatlari ro'y berib turadi" [6]. Dunyodagi "ayrim" siyosiylik diniiy markazlar tomonidan mazkur omillar mustamlakachilik va yangi mustamlakachilik, buyuk davlat shovinizmi va xalqaro munosabatlarda diniy zo'rvonlik asosida mamlakatda parokandalikni keltirib chiqarishga zamin yaratmoqda. Shu tariqa, "iqtisodiy yordam" ko'rsatish bahonasida rivojlanayotgan davlatlarni ichki ishlariga aralashuv singari qonunga zid harakatlar kuzatilayotganligini ta'kidlash lozim. Natijada, hokimiyat uchun kurash, ayirmachilik, chegaraviy va mintaqaviy ziddiyatlar, etnik mojarolar ekstremizm va terrorizmni tobora kuchayishiga zamin yaratmoqda. O'z navbatida mazkur holat, mamlakatda diniy tuyg'ularni kuchaytirish orqali bir-biriga qarama qarshi turgan guruhlarni shakllantirmoqda. Din mafkuraning eng keng tarqalgan shakli bo'lgani uchun undan siyosiy partiyalar ham foydalandi. Keyingilar esa dinning asl mohiyatini buzib, uni niqob qilib oldi [7].

Globalashuv sharoitida dunyodagi "ayrim" siyosiy kuch markazlari o'zlarining geostrategik maqsadlarini amalga oshirishda "nishon" sifatida tanlangan mamlakatni o'ziga tobe qilishda missionerlikdan foydalanmoqda. Ayniqsa, muayyan mintaq va hududda yashovchi aholining eng nochor kam ta'minlangan qatlamini aniqlash orqali ularga "rejali beg'araz" yordam ko'rsatish bahonasida ichki ishlariga bevosita aralashuv singari qonunga zid harakatlarni o'zida namoyon etmoqda. Jahonda geosiyosiy kuchlar muvozanatining o'zgarishi, ayrim rivojlangan davlatlarning o'z demokratiyasini "eksport" qilish orqali dunyoga hukmronlik uchun ochiqdan-ochiq da'vogarlik qilishi hech kimga yangilik emas [8]. Shu tariqa, dunyo miqyosida ijtimoiy tabaqalanishning kuchayishi, bozorning shafqatsiz raqobati, iqtisodiy inqiroz tufayli ommaning diniy psixologiyasini o'zgartirmoqda. Aynan, mazkur holat, missionerlikdan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, muayyan mintaq va hududda vujudga kelayotgan yangi diniy harakat (YaDH) larning missionerlik faoliyati uch bosqichda amalga oshirilmoqda. Ya'ni: "missionerlik hudud"ini o'rnatish, uni xorijiy sarmoyalar asosida moliyalashtirish orqali diniy jamoalar sonini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada, missionerlikning faol targ'ibot va tashviqoti orqali oldin mavjud bo'lmagan yuzlab xristianlik konfessiyalari vujudga kelmoqda. Ayniqsa, missionerlikning kuchayishi jahon miqyosida global ijtimoiy – iqtisodiy inqiroz davrida davlatlarni bir tuzumdan ikkinchisiga o'tish sharoitida avj olmoqda.

Dunyo miqyosda missionerlikning keng ko'lamdagi faoliyati missionerlik tashkilotlarini kengaytirmoqda. Mazkur harakatga xalqaro miqyosda homiylik qilayotgan siyosiy markazlar, moliyaviy doiralar, alohida shaxslarning doimiy e'tiborda ekanligi missionerlikka nisbatan jiddiy e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ayniqsa, "ayrim" siyosiy markazlar ko'magi ostida "beg'araz" moliyaviy yordam ko'rsatish va turli xayriya jamg'armalari niqobi ostida qo'llab quvvatlash masalani bu borada jiddiy ekanligini taqozo etadi.

Xorijiy moliyaviy ko'mak asosida moliyalashtirilayotgan missionerlik strategiyasida aksariyat holatlarda siyosiy maqsadlarni ko'zlab harakat qilayotganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ziddiyatlardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanib kelayotgan turli xil siyosiy-mafkuraviy guruhlar etnik-milliy, diniy asosda yangi ziddiyatlarni ongli ravishda avjiga chiqarmoqdalar [9]. Natijada, mazkur holat, muayyan mintaqalarda avvalo, jamiyat xavfsizligi hamda mamlakat barqarorligiga putur yetishi uchun zamin yaratmoqda. Aynan, missionerlikni rivojlantirish maqsadida xorijdan yo'naltirilayotgan "beg'araz moliyaviy"dan o'z manfaati va maqsadlari sari intilish tobora oydinlashmoqda. Vaholanki, dunyo miqyosida geosiyosiy kuchlar muvozanatining tobora o'zgarishi, ayrim rivojlangan davlatlarning o'z demokratiyasini "eksport" qilish orqali dunyoga hukmronlik qilish maqsadida ochiqdan — ochiq da'vogarlik qilishga bo'lgan harakatlar misolida namoyon bo'lmoqda.

Yaqin Sharq mintaqasiga, jumladan, arab mamlakatlariga o'z ta'sirini o'tkazishga urinayotgan kuchlar o'rtasidagi geosiyosiy raqobatning kuchayishi ular mustaqilligiga tahdidlarning yangi turlari sifatida namoyon bo'layotganini ko'rsatmoqda. O'z navbatida, bunday harakatlar Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, jumladan, ayrim arab davlatlarining geosiyosiy va geostrategik ahamiyati ortib borayotgani, ulkan tabiiy-iqtisodiy va boshqa resurs salohiyatiga egaligi ular xavfsizlik va barqarorlikka tahdid va xatarlar saqlanib qolayotgan mintaq sifatida hamon jahon hamjamiyati diqqat markazida turganligini ham anglatadi [10]. Zero, missionerlik harakatlari natijasida "inson huquqlari", "vijdon

erkinligi”, “demoraktik erkinliklar”ni olg’a surish uchun ko’rsatilayotgan “ko’mak” aslida mamlakatni parokandalik sari siyosiy boshboshdoqlikka yetaklayotganligi yaqqol namoyon bo’lmoqda. Erkinlik, demokratiya inson huquqlari kabi jozibali g’oyalarni niqob qilib olgan bu siyosiy kuchlar shu asosida dunyodagi xohlagan mustaqil davlatning ichki ishlariga aralashib, g’arazli maqsadlarga erishmoqchi bo’ladi [11]. Vaholanki, missionerlik orqali amalga oshirilayotgan “demokratiya” niqobidagi urinishlar mana shunday noxushliklarni keltirib chiqarishi mumkinligini anglash barchadan jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mutaxassislar tomonidan o’tkazilgan “strategik tadqiqotlar” natijasiga ko’ra, missionerlik dunyoda global miqyosida turli konfliktida va qat’iy geosiyosiy bosimda ekanligini ta’kidlashadi. Missionerlik ta’siri ostida har qanday xalq va millatning madaniy ildiziga tahdid solish orqali o’ta radikal millatchilik harakatlarini vujudga kelishiga sabab bo’lmoqda. Natijada, mazkur harakatlar oqibatida dunyoda global miqyosda etnik va millatlararo mojarolarning tobora avj olishi har qanday xalq va millatni mentalitetiga rahna solish orqali ma’naviy tubanlik girdobiga yetaklamoqda. Shu tariqa, missionerlik oqibatida “ayrim” siyosiy kuchlar o’zining gegemonligini o’rnatish maqsadida g’oyaviy-mafkuraviy, geosiyosiy, madaniy jihatdan ustunlikka erishish kuzatilmoqda. Xususan, global iqtisodiy inqiroz davrida missionerlik dunyoning nochor davlatlari taraqqiyotiga go’yoki, “iqtisodiy” yordam ko’rsatish bahonasida qashshoqlik, ochlik, nochorlikni bartaraf etish maqsadida “maqsadli” yordamni tavsiya etishi namoyon bo’lmoqda. Natijada, xorijdan yo’naltirilayotgan “maqsadli” iqtisodiy yordam ta’sirida rivojlanayotgan davlatlar o’rtasidagi tengsizlik tobora keskin tus olishi oqibatida bir qator tahlikali vaziyatlar vujudga kelmoqda. Vaholanki, missionerlik tashkilotlari tomonidan ko’rsatilayotgan “maqsadli” yordam mazkur mintaqalardagi muammolarni hal etish uchun emas, balki mazkur davlatlarni o’zlariga iqtisodiy qaram qilish orqali o’zlarini moddiy jihatdan yuksalishiga zamin yaratmoqda.

Shu tariqa mavjud diniy tashkilotlar o’rtasida vujudga kelayotgan diniy tafovutlar oqibatida konfessiyalaro nizolarning kuchayotganligini aytib o’tish lozim. Natijada, mazkur holat, diniy asosdagi to’qnashuvlarni keltirib chiqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aslida, moddiy jihatdan qudratli hisoblangan “ayrim” din niqobi ostidagi missionerlik aslida diniy kelishmovchiliklarning yagona manbai sifatida namoyon bo’lmoqda. Globallashuv sharoitida sivilizatsion modernizatsiya jarayonlari o’zaro ziddiyatli bo’lgani bois insoniyat sivilizatsiyasining inqirozidan dalolat beradi. Ma’lumki, inqirozning asosini global kapital agentlari bo’lmish transmilliy korporatsiyalarning g’arazli manfaatlari tashkil etadi. Buning oqibati o’laroq ayrim sivilizatsiyalar va dinlarning global tarzda missionerlikka qo’l urishi kuzatilmoqda, ammo ularning siyosati boshqa sivilizatsiyalar vakillari yoki “begona”lar uchun zararli deb baholanishi mumkin. Mazkur fikrlar tasdig’i sifatida XVI asrda vujudga kelgan mustamlakachi imperiyalar jahon mustamlaka tizimini paydo bo’lishiga zamin yaratganligini ta’kidlash joiz. Natijada, G’arbning yirik davlatlari mustamlakalarga nafaqat iqtisodiy, siyosiy, balki madaniy gegemonligini ekspansiya qildi. XX asr o’rtalariga kelib dunyoda mustamlaka tuzumlarini inqirozi global missionerlikka bo’lgan ehtiyojni tugatishga zamin yaratdi. Ammo, bugungi kunda G’arb madaniyatining o’z ustunligidan mahrum bo’lganiga ko’nikish hosil qila olmaydigan ayrim radikal guruhlar missionerlikdan voz kechmayotganligi namoyon bo’lmoqda. Xususan, missionerlik tarafdorlari o’zga sivilizatsiya resurslarini eskpulatatsiya qilish hisobiga iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarining ko’pgina jihatlarida yorqin muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Shu o’rinda missionerlik tashkilotlarining strategiyasiga e’tibor qaratilsa, odatda ular o’z maqsadlarini rasman oshkor etishmaydi. Tashkilot a’zolari go’yoki, o’z g’oyalarini niqoblash maqsadida “bizning maqsadimiz – kambag’allikni umuman yo’q qilish” degan so’zlar ortida aslida esa “hamma ekanini o’radi”, “bo’lib tashla va hukmronlik qil” deya chiroyli niqoblangan shiorlar ostida faoliyat ko’rsatishi namoyon bo’lmoqda. Aynan, bugungi kunda dunyoda global miqyosda demokratiya o’rnatilishi, insonlarning huquqlarini ta’minlanishi bahonasida missionerlik oqibatida Shimoliy Afrikada, Yaqin Sharqda va Sharqiy Yevropa xususan, Ukrainada yuz minglab begunoh insonlarni bevaqt vafot etishiga sabab bo’lganligini ta’kidlash o’rinlidir. Hozirgi kunda dunyo hamjamiyatining tinchligiga rahna solayotgan missionerlik tashkilotlari o’zlarining asl maqsadlarini din manfaatlari bilan niqoblashga urinadi. Shu bois bunday missionerlik guruhlarining va’zlarida Xudo ko’p tilga olinadi. Natijada, xristianlik dini va xususan G’arb loyihasi xalqaro axborot tarmog’ida dunyodagi eng ilg’or, taqlid qilsa arziydigan mafkura sifatida targ’ib qilinadi. Aynan, mazkur omillar, missionerlik jabhasidagi hujum keng miqyosda, chinakam global darajada olib borilmoqda. Bu haqda Rus tadqiqotchisi A. Panarin bundan 15-20 yil muqaddam missionerlarni “dengiz qaroqchilari” deya atab, ularning faoliyatini obrazli tarzda zabt etish jarayoni sifatida tasvirlagan edi: “quruqlikdagi bosh istehkom, dunyoning asosiga qarshi bugun Dengiz qit’ani nafaqat jismonan zabt etishni, u qit’a etosini – ming yillar davomida ishlab chiqilgan va qit’a antropologik qiyofasi uchun javobgar bo’lgan ruhiy-psixologik strukturasi va yaron etishni reja qildi. Shu maqsadda qit’a aholisini avtohtonlar va beshinchi

SIYOSAT

kolonnaga bo'lish operatsiyasi olib borilmoqda, beshinchi kolonnadan ko'zlangan maqsad esa dengiz kelgindilariga qit'a qal'asining darvozalarini ochib berishdir. Ko'z oldimizda "elita" (madaniy, siyosiy, xo'jalik yurituvchi) tushunchasining o'zi misli ko'rilmagan darajada o'zgartirib yuborilmoqda G'arbcha kun kechirish imtiyozini, bu imtiyoz ko'pchilikka yopiq ekanligiga qaramay, o'zlashtirayotganlar o'zlarini elita so'zi bilan atay boshlamoqda. Elita bugungi kunda dengiz qaroqchilariga sadoqatliligi, ularning kemasiga o'tib olishga tayyorligi bilan xarakterlanmoqda", – deya alohida e'tibor qaratib o'tgan edi. Missionerlikda bu o'ziga xos "zabt etish" jarayonining eng ta'sirchan jihatlaridan biri sifatida manfaatlar qadriyatlar ko'rinishida namoyon etiladi. Aynan, globallashuv shiddatining tobora avj olishi dunyo miqyosida geosiyosiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, mazkur holat dunyo qiyofasini tubdan o'zgartirish orqali muayyan mintaq va hudud miqyosida geosiyosiy ta'sir doiralari qayta taqsimlashga bo'lgan harakatlar misolida namoyon bo'lmoqda. Missionerlik go'yoki, dinni targ'ib etish orqali amalga oshirilayotgan targ'ibot aslida siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan ekspansiya etishni o'zida aks etadi. Xorijiy OAVda missionerlik faoliyati o'rganilganda, "ayrim" siyosiy markazlar, maxsus xizmatlar manfaatlar uchun ishlayotganligi haqidagi ma'lumotlar paydo bo'lmoqda. Jumladan, rossiyalik ekspertlar protestantlikka mansub mormonlar cherkovi AQSh maxsus xizmatlari uchun josuslik faoliyati bilan shug'ullanadi, deb hisoblaydilar. Aynan, globallashuv sharoitida dunyodagi "ayrim" siyosiy kuchlarning ba'zi doiralar dindan xususan, missionerlikdan o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishish vositasi sifatida mutaassiblik, fanatizm hattoki davlat to'ntarishlari kabi qabih yo'llaridan foydalanayotgani afsuski, hech kimga sir emas.

XULOSA

Globallashuv jarayonida iqtisodiy inqiroz davrida dunyoda gegemonlik qilishga intilish tobora kuchaymoqda. Bir necha asr oldin koloniyalashtirish xristianlikning shioriga aylangan bo'lsa, hozirda "jahonga kirib borish" aynan missionerlik harakatlari oqibatida tobora kuchayotganligi namoyon bo'lmoqda. Axborot-tahliliy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, diniy sohaga bevosita daxldor ushbu global hodisalarning tobora chuqurlashib va keng qamrov kasb etib borayotganini ko'rsatadi.

Bugungi kunda dunyoda vujudga kelayotgan tahlikali vaziyatga baho berar ekanmiz, xalqaro xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlarning ko'lamini kengayib, geosiyosiy raqobatning oshib borayotgani, g'oyaviy-mafkuraviy ekspansiyaning faollashuvini namoyon etmoqda. Mana shunday murakkab sharoitida mamlakat xavfsizligi va jamiyat barqarorligiga, uning manfaatlariga, millat kelajagiga raxna soladigan har qanday kuchga qarshi kurashda biz faqat xalqimizning aql-zakovati, bukilmaz irodasi va salohiyatiga, o'z kuch va imkoniyatlarimizga tayanib mafkuraviy tarbiya vositasida doimo ogoh, sezgir va hushyor bo'lish mas'uliyatli muqaddas vazifamiz ekanligini anglash bugungi davr va bugungi zamon taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasidan.
2. Harrington F.H. God, Mammon and the Japanese. –Medison: 1921, p.35.
3. Paxrutdinov Sh.I. Dunyoviy demokratik davlatchilik qurilishi amaliyotida diniy ekstremizm tahdidi. S.f.d. ilmiy darajasi uchun yozilgan dis. 23.00.02. -T.: 2001. - bet 115-116.
4. Muhammadsidiqov M. Afrika davlatlarida din omilining etnik va millatlararo ziddiyatlar yuzaga kelishiga ta'siri. Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari jurnali. -T.: 2015. №2 (70) - bet 90.
5. Филатов С. Судан: острые приступы «Независимости». Сайт «Международная жизнь», 28.05.2012. URL <http://interaffairs.ru/read.php?sitem=8496>.
6. Xasanboev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari. "TIU" bosmaxonasi. -T.: -2014. -bet 113.
7. Erkaev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. -T. "Ma'naviyat" 2009. -bet 230.
8. Bozorov O. Bugungi kunning eng dolzarb vazifasi. Tinchlik – bebaho ne'mat. Tinchlik va osoyishtalik – oliy ne'mat. -T.: "Movarounnahr", 2013. -bet 86.
9. Paxrutdinov Sh.I. Mustaqillik va jamiyat taraqqiyotiga tahdid muammoasi. (siyosiy tahlil tajribasi) S.f.n. ilmiy darajasi uchun yozilgan dis. 23.00.02. -T.: 1999.
10. Bozorov O. Bugungi kunning eng dolzarb vazifasi. Tinchlik – bebaho ne'mat. Tinchlik va osoyishtalik – oliy ne'mat. -T.: "Movarounnahr", 2013. -bet 86-87.
11. Qur'onov M. Niqob ortiga bir nigoh. -T.: "Ma'naviyat". 2018. -bet 12.